

Uralova Oysuluv Poyan qizi
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tel: +998 91 911 92 92

E-mail: oysuluv.uralova@mail.ru

UDK: 81.119 (97.115)

MAQOL LINGVISTIK TADQIQOTLAR OBYEKTI SIFATIDA

Annotatsiya. Ushbu maqolada maqol lingvistik tadqiqot obyekti sifatida o'rganilgan. Nafaqat o'zbek tilshunoslari, balki jahon tilshunos olimlarining maqolga nisbatan bergan ilmiy-nazariy qarashlari tahlilga tortilgan, ayrim o'rinlarda ularga munosabat bildirilgan.

Kalit so'zlar: maqol, paremiologiya, paremiya, parema, ling maqom, matal.

ПОСЛОВИЦА КАК ОБЪЕКТ ЛИНГВИСТИЧЕСКОГО ИССЛЕДОВАНИЯ

Уралова Ойсулув Поян кизи
Доцент Термезского университета экономики и сервиса,
доктор философии по филологическим наукам (PhD)

Тел: +998 91 911 92 92

Э-почта: oysuluv.uralova@mail.ru

Аннотация. В данной статье пословица изучается как объект лингвистического исследования. Анализируются научно-теоретические взгляды узбекских и мировых лингвистов на пословицу, а в некоторых местах высказываются реакции на них.

Ключевые слова: пословица, паремиология, паремия, парема, линг статус, мата́л.

PROVERB AS AN OBJECT OF LINGUISTIC RESEARCH

Uralova Oysuluv Poyan kizi
Associate Professor of Termez University of Economics and Service,
doctor of philosophy (PhD) in philological sciences

Phone: +998 91 911 92 92

Abstract. In this article, the proverb is studied as an object of linguistic research. Not only Uzbek linguists, but also world linguists have analyzed the scientific-theoretical views of the proverb, and in some places, they have been reacted to.

Key words: proverb, paremiology, paremia, parema, linguistic status, matal.

Kirish.

Har bir tilda xalq donoligi durdonasi, pand-nasihat manbai bo'lgan va avloddan-avlodga o'tib kelayotgan naqlar bor. Fanda ularni paremiologik birliklar (paremiyalar) deb atashadi. Ular tadqiqot obyekti sifatida azaldan mutaxassislarni o'ziga jalb etib kelmoqda, chunki bu lug'aviy birliklar xalqning tajribasi, dunyoqarashini aks ettiradi. Paremiyalarni ilmiy o'rganish natijasida insonlar va jamiyat hayotiga taalluqli ko'plab muhim savollarga javob topish mumkin. Paremiyalar jahonning barcha tillarida mavjud, xususan, hind-yevropa, turkiy, ugor-fin, tungus-manchjur, eskimos-aleut, nax-dog'iston, xitoy-tibet, avstro-osiyo, malay-polineziya, dravid, papuas, afro-osiyo, semit-xamit, arab, fors va boshqa tillar paremiyalarga boyligi va o'ziga xosligi bilan tavsiflanadi.

Adabiyotlar tahlili.

Paremiologiya sohasiga oid juda ko'p tadqiqotlar bo'lishiga qaramay, olimlar va tadqiqotchilar o'rtasida "maqol" tushunchasiga nisbatan yagona fikr yo'q. Tadqiqotchilar tomonidan taklif etilgan ba'zi bir ta'riflarni ko'rib chiqamiz.

Qadimiy turkiy tilda bevosita maqol so'zi bilan bog'liq **ساف** saw (sav) so'zi mavjud bo'lgan. Buyuk lug'atshunos Mahmud Qoshg'ariy ushbu so'zning qator ma'nolarini keltiradi: **ساف** saw (sav) – otalar so'zi; maqol (masal). Chunonchi, savda mundag kelir – otalar so'zida shunday keladi. **ساف** saw (sav) – (qissa). **ساف** saw (sav)– hikoya (hikaya). **ساف** saw (sav) – risola, maktub (risala). **ساف** saw (sav) – so'z, nutq (kalam). **ساف** saw (sav) – xabarlar va yangiliklar (anba va ahadīs). Shu boisdan nabi, payg'ambarga sawči deyiladi. Chunki u bir qancha xabarlarni eshittiradi, yozilgan narsalarni yetkazadi. **سافچی** sawči (савчи) – kelin va kuyovlar orasida, yuqorida aytganimcha, bir-biriga xat-

xabarlar eltuvchi sovchi. (Bilimli) shunday degan: Bilgä erän sawların alg'ıl ögüt, Edgü sawıg edläsä özkä sinär. Aytmoqdaki: Bilag'on kishilarning so'z, o'gitlaridan foydalan. Chunki yaxshi so'z ta'sir qilgach, ko'ngilga joylashadi.

Qator olimlarning fikrlarini o'rganib, umumlashtirib, Y.Osheva ta'kidlaydiki, “yunoncha so'z paremiya “maqol” terminiga ekvivalentdir, ammo, tadqiqotchilar ushbu tushunchaga matallarni ham kiritishadi [4; 75.]. L.B.Savenkova fikrini qo'llab, paremiya deganda biz ikkilamchi til belgilari, realiyalar o'rtasida vaziyatlar yoki munosabatlar markerlari bo'lgan yopiq barqaror frazalar (maqol va matallar)ni tushunamiz. V.A.Voropaeva paremiyalar doirasiga hammaga ma'lum bo'lgan belgilarga ega Muqaddas Kitobdagi maqollar, matallar, hikmatlarni kiritadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqollarning lingvistik tadqiqotiga bag'ishlangan ushbu maqolada ilmiy tadqiqotning analiz va sintez, germeneytik tahlil, qiyosiy tahlil kabi usullaridan unumli foydalanildi.

Tahlillar va natijalar.

I.A.Podyukov paremiya matnini, ya'ni maqol va matallarni quyidagicha aniqlaydi: “vaqt va insoniyat tajribasi bilan sinovdan o'tgan fikr, tasdiq. Bu inson tafakkurining yetarlicha murakkab shaklini aks ettiruvchi, aforistik mulohaza turi bo'lib, unda obrazli modellashtirishda va baholi izohda hayotiy vaziyat yoki insonlar o'rtasidagi mohiyatli munosabatlar gavdalanadi” . G.L.Permyakov maqollar haqida fikr yuritib, tilning 24 paremiologik yarusini ajratdi. Muallif ta'kidlaydiki, maqol va matallar paremiyali iboralarning asosiy fondini tashkil etadi. Maqol va matallar tabiati qandayligi haqidagi masalani ko'targan G.L.Permyakov alohida qayd etadiki, bu savolga javob berish oson emas, chunki, birinchidan, zikr etilgan janrga nimani kiritish aniq belgilanmagan, ikkinchidan, maqol va matallar – bu murakkab, turli miqyosdagi hosiladir. Bir tomondan, maqol va matallar ko'p jihatdan frazeologik iboralarga o'xshash til birligi, barqaror birikmalar, boshqa tomondan u yoki bu fikrni ifodalaydigan qandaydir mantiqiy

birliklar, uchinchidan, voqelikning o'zida bor narsalarni yorqin shaklda umumlashtiruvchi badiiy miniatyuralardir [5; 84.].

P.Bakirov maqollarning juda katta ahamiyatini ta'kidlab, ularni "xalq hayotining entsiklopediyasi", – deb ataydi" [3; 36.].

Szyuy Chuantin maqollar va madaniyat orasidagi bog'liqlik haqida quyidagi fikrlarni beradi: "kommunikativ funksiyani bajaruvchi maqol va matallar an'analarni saqlovchilar va madaniyatni tashib o'tuvchilardir. Bu ularning nutqda madaniy konstantalar sifatida qayta tiklanishni belgilaydi. Xalq maqollari "madaniy kod"ga ega bo'lib, uning yordamida etnosning dunyoqarashi ifodalanadi. Paremalarning predmet-majoziy sostavi milliy o'ziga xoslikning asosiy tarkibiy qismidir. Unda xalqlarning geografik, tarixiy va madaniy xususiyatlari aks ettirilgan, ya'ni janrning etno (spetsifikasi) o'ziga xosligi namoyon bo'ladi".

Armaniston Gyumri davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi Stella Israylyanning "Structural-Semantic Analysis of English Proverbs with "Smile" ("Tabassum" komponentli ingliz maqollarining struktur-semantik tahlili) nomli maqolasida tarkibida "tabassum" so'zi mavjud bo'lgan *A Smile is a curve that sets everything straight* (Tabassum – bu hamma narsani to'g'ri belgilaydigan egri chiziq.), *Every time you smile at someone; it is an action of love, a gift to that person, a beautiful thing* (Har safar kimgadir tabassum qilganingiz – bu sevgi harakati, odamga sovg'a, go'zal narsa.), *You're not using your smile, you're like a man with a million dollars in the bank and no checkbook* (Tabassumingizdan foydalanganingizda, siz bankda chek daftarchasi yo'q, lekin million dollarlik odamga o'xshaysiz.) kabi qator ingliz maqollari semantik jihatdan sevgi, mehribonlik, do'stlik, hayot falsafasi singari guruhlariga bo'lish mumkinligini qayd etadi.

Har xil tizimli tillarda maqollar realiyalarni ifodalash jihatidan sezilarli farqlarga ega bo'lishi mumkin. Logik-semiotik jihatdan o'xshash, lekin realiyalarning har xil nomlanishi bilan farqlanuvchi rus, qozoq, ingliz, nemis, ispan, italyan, xitoy, dariy va o'zbek tillari maqollarida realiyalarni keltirib o'tamiz. *Волков бояться – в лес не ходить* (Bo'ridan qo'rqqan o'rmonga

bormas) rus maqoli, *Шегірткеден қорыққан егін екпес* (Chigirtkadan qo‘rqqa ekin ekmas) qozoq naqli, *Don’t go to the woods if afraid of bear* (Ayiqdan qo‘rqqa o‘rmonga bormas) ingliz paremiologik birligi, *Der kommt nimmer in den Wald, der jeden Strauch fürchtet* (Butadan qo‘rqqa o‘rmonga kirmas) nemis maqoli, *El que no se arriesga no pasa la mar* (Kim tavakkal qilsa, dengizdan o‘tmaydi) ispan naqli, *Chi ha paura di ogni foglia non va nel bosco* (Bargdan qo‘rqqa o‘rmonga kirmaydi) italyan maqoli, 不爬进虎穴，就抓不到虎崽 [Bù pá jìn hǔxué, jiù zhuā bù dào hǔ zǎi] (Yo‘lbars uyasiga kirmasdan, yo‘lbars bolasini ushlay olmaysiz) xitoy maqoli, نه سير خورده ام و نه از بويش ميترسم. [Na seer xurda am va na az buyash metarsa] (Sarimsoq piyoz ham yemadim, hididan ham qo‘rqmayman) dariy naqli va “Chumchuqdan qo‘rqqa tariq ekmas” o‘zbek zarbulmasali “qo‘rqmasdan, tavakkal qilib jasorat bilan harakat qilish kerak, chunki biror ishni xavf-xatarsiz bajarib bo‘lmaydi” ma’nosiga ega [2; 53.].

Xulosa.

Keltirilgan maqollardan ko‘rinib turibdiki, har bir xalq o‘zining realiyalariga ega: ruslarda *волк* (*bo‘ri*), qozoqlarda *uezipmke* (*chigirtka*), inglizlarda *bear* (*ayiq*), nemislarda *Strauch* (*buta*), ispanlarda *mar* (*dengiz*), italyanlarda *foglia* (*barg*), xitoyliklarda 老虎 [*lǎohǔ*] (*yo‘lbars*), afg‘on xalqida *سير* [*seer*] (*sarimsoq piyoz*), o‘zbeklarda *chumchuq*. Shunday qilib, har bir xalq olam haqida o‘ziga xos tasavvurga ega. Bu turli e’tiqod, mentalitet, an’ana va urf-odatlar, bayramlar, har xil madaniyat, tarix bilan bog‘liq. Bunday etno-madaniy ma’lumotlarni o‘zida saqlovchi komponentlar esa maqollardir.

Adabiyotlar

1. Narmuratov Z.R. Ingliz va o‘zbek tillarida “ta’lim”, “ilm” konseptlariga oid paremalarning lingvomadaniy tadqiqi: Filol. fanlari bo‘yicha falsafa dokt. (PhD) diss. avtoreferati. – Termiz: 2022 – 58 b.
2. Uralova O. Inliz va o‘zbek tillarida “oila” bosh leksemali maqollar semantikasi va sturukturasi. Filol. fan. dokt. (PhD) dis. – Samarqand: 2021. – 235 b.

3. Бакиров П.У. Семантика и структура номинацентрических пословиц (на материале русского, узбекского и казахского языков). – Ташкент: Фан, 2006. – 298 с.
4. Ошева Е. Паремиологическое пространство: дискуссионные вопросы // Исследовательский журнал русского языка и литературы, 1 (1), 2013. – С. 75–88.
5. Пермяков Г.Л. Пословицы и поговорки народов Востока. Систематизированное собрание изречений двухсот народов. – Москва: Наука, 1979. – 671 с.